

**ALALIYA NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BOLALARNI XALQ  
OG'ZAKI IJODI ASOSIDA LOGOPEDIK TEKSHIRISH, TASHKIL  
ETISH VA O'TKAZISH**

**Tursunkulova Muhayyo Umurzoq qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU, Maxsus pedagogika va inklyuzif ta'lif fakulteti  
logopediya yo'nalishi 2kurs magistranti

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.6525756>**

*Annotation.* Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi alaliyali bolalarda bog'langan nutqni xalq og'zaki ijodi (ertak terapiyasi) orqali logopedik tekshirish, tashkil etish va ularni o'tkazish haqida ma'lumot berilgan.

*Kalit so'zi:* Alaliya, morfologik, anamnestik tajriba-sinov, eksperiment, psixolingvistik, monologik, grammatik, metod, seriya, fragment, leksik, syujet, predmet.

**ЛОГОПЕДИЧЕСКОЕ ОБСЛЕДОВАНИЕ, ОРГАНИЗАЦИЯ И ВЕДЕНИЕ ДЕТЕЙ  
С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ НА ОСНОВЕ ФОЛЬКЛОРА**

*Аннотация.* В данной статье представлена информация об организации, организации и проведении логопедической помощи детям дошкольного возраста с нарушениями речи средствами фольклора (сказкотерапии).

*Ключевые слова:* Алалия, морфологический, анамнестический эксперимент, эксперимент, психолингвистический, монолог, грамматика, прием, серия, фрагмент, лексика, сюжет, тема.

**SPEECH THERAPY EXAMINATION, ORGANIZATION AND CONDUCT OF  
CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS BASED ON FOLKLORE**

**Annotation.** This article provides information on speech therapy, organization and conduct of speech-linked speech in preschool children through folklore (fairy tale therapy).

**Key words:** Alalia, morphological, anamnestic experiment, experiment, psycholinguistic, monologue, grammar, method, series, fragment, lexicon, plot, subject.

Nutqda grammatik qurilish uning material ifodasini tashkil etadi, ya’ni so‘z shakllari o‘zaro munosabatga kirishadi va gap shaklini oladi. Bolalarning nutq malakasini egallash jarayoni aslida gaplarni to‘g‘ri qo‘llash malakasini o‘zlashtirish jarayonidir. Morfologik shakllar gaplarni shakllantiradi. Aynan gap tafakkur va muloqotning asosiy birligi hisoblanib, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy malakalari darajasini belgilaydi. So‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi va turli ma’nolarga egaligi nutq mazmunini tushunish va ifodalashga xizmat qiladi. O‘z navbatida, to‘g‘ri qurilgan gap tuzish, me’yorda rivojlangan bolalar singari, alaliyali bolalar nutqining rivojlanganlik darajasi ko‘rsatkichi hamdir. Shu bois ta’kidlovchi tajriba-sinov maktabga tayyorlov guruhidagi maktabgacha yoshdagi bolalarda bog‘lanishli nutq ko‘nikmalarini aniqlashga qaratildi. Mazkur ko‘rsatkich bolalarning umumta’lim maktablarida muvaffaqiyatli ta’lim olishining muhim sharti hisoblanadi.

*Ta’kidlovchi eksperimentdan ko‘zlangan maqsad - maxsus logopedik guruhda olib borilgan mashg‘ulotlardan so‘ng maktabgacha yoshdagi alilik bolalar nutqini bog‘lanishli tomonini o‘rganishdir.*

*Ta’kidlovchi eksperimentda quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:*

Ko'p tarmoqliy mактабгача та'lим ташкilotida uch yil davomida tarbiyalangan mактабгача yoshdagi bolalar nutqining bog'lanishli holatini tekshirish.

Bolalarda bog'lanishli nutq ko'nikmalarini o'r ganish muammosi bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan tadqiqot 480-ko'p tarmoqli maxsus mактабгача ta'lim tashkilotida olib borildi.

#### *Ta'kidlovchi eksperimentni tashkil etish*

Ta'kidlovchi eksperiment uch bosqichdan iborat bo'ldi:

1. Tayyorlov bosqichi.
1. Asosiy bosqich.
2. Yakunlovchi bosqich.

**Tayyorlov bosqichida** eksperiment davomida qo'llaniladigan metodikalar aniqlandi, tashxis materiallari saralandi, olingan ta'kidlovchi eksperiment natijalari qayd etiladigan varaqalar tuzildi.

Tibbiy hujjatlar tahlil etilib, anamnestik ma'lumotlar to'plandi, tadqiqot guruhi shakllantirildi.

**Asosiy bosqich** bevosa mактабгача yoshdagi bolalar bog'lanishli nutqini tekshirishni nazarda tutdi.

**Yakunlovchi bosqichda** olingan natijalar tahlil etildi. Tegishli tahlillar va ta'kidlovchi eksperiment natijalari asosida bog'lanishli nutqni shakllantirishga doir logopedik ish yo'nali shlari ishlab chiqildi.

#### *Ta'kidlovchi eksperiment metodikasi*

Ta'kidlovchi eksperiment metodikasi A.Luriya, R.Lalaevaning psixolingvistik metodikalari, S.Zabramnaya, I.Levchenko, T.Volkovskaya, G.Yusupovalarning psixologo-pedagogik metodikalari, S.Seytlinning umum

pedagogik, M.Ayupova, G.Volkova, O.E.Gribova, R.Ya.Kiryanova, L.Mo'minova, T.Filicheva, G.Chirkinaning logopedik metodikalari asosida ishlab chiqildi.

Bunda psixolingvistik nazariyaga doir nutqiy faoliyatning ko'p bosqichli tuzilishi, nutq nuqsonlarining tizimliligi, ruhiy jarayonlarning yagonaligi va uzviyligi e'tiborga olindi.

Leksik material maktabgacha yoshdagi nutqi me'yorda rivojlangan (A.Gvozdev, S.Seytlin) va alaliyali bolalar (G.Volkova, O.Inshakova, Ye.Mastyukova) nutqini o'rganishga doir uslubiy tavsiyalarga tayangan holda saralandi. Material rasmda tasvirlangan ob'ekt yoki voqeа-hodisani taniy olmaslik singari kutilmagan qiyinchiliklarning oldini olish maqsadida bolaning ijtimoiy tajribasiga mos ravishda tanlandi. Material sifatida syujetli va predmetli rasmlar qo'llanilib, ular seriya yoki to'plam sifatida taqdim etildi.

### **Bog'lanishli nutqni tekshirish bo'yicha topshiriqlar.**

**1-topshiriq.** Sodda va kichik hajmdagi ertakni qayta so'zlab bering. ("Sholg'om" ertagi)

**Ko'rsatma:** Hozir men sizga ertak aytib beraman, siz esa meni diqqat bilan eshititing. So'ngra eshitganlaringizni menga qayta so'zlab berasiz.

**Nutqiy material:** «Sholg'om» ertagi.

Chol sholg'om ekibdi va parvarishlabdi. Sholg'om ko'z ko'rib qulop eshitmas darajada kattalashib yetilibdi. Chol sholg'omni tortib olmoqchi bo'libdi. U sholg'omni tortibdi, tortibdi, lekin tortib chiqara olmabdi.

Chol kampirini chaqiribdi. Kampir cholni, chol sholg'omni torta boshlabdilar. Tortishibdi, tortishibdi, lekin sholg'omni sug'urib olisha olmabdi.

Kampir nabirasini chaqiribdi. Nabira kampirni, kampir cholni, chol sholg‘omni torta boshlabdilar. Tortibdilar, tortibdilar, lekin maqsadga yeta olmabdilar.

Nabira kuchugini chaqiribdi. Kuchuk nabirani, nabira kampirni, kampir cholni, chol sholg‘omni torta boshlabdilar. Tortibdilar, tortibdilar, lekin sholg‘omni sug‘ura olmabdilar.

Kuchuk mushukni chaqiribdi. Mushuk kuchukni, kuchuk nabirani, nabira kampirni, kampir cholni, chol sholg‘omni torta boshlabdi. Tortibdilar, tortibdilar, lekin sug‘urib olmabdilar.

Mushuk sichqonni chaqiribdi. Sichqon mushukni, mushuk kuchukni, kuchuk nabirani, nabira kampirni, kampir cholni, chol sholg‘omni torta boshlabdilar. Hammalari birgalashib tortibdilar, tortibdilar va sholg‘omni tortib chiqaribdilar.

**2-topshiriq.** Seriyali rasmlarga qarab hikoya tuzing.

**Logoped uchun ko‘rsatma:** «Bo‘g‘irsoq» ertagi mazmuniga oid bir necha rasmlar ko‘rsatiladi. Shu rasmlar asosida ertakni aytib berishlarini taklif etadi.

**Rasmlar mazmuni:** Chol va kampir hamda bo‘g‘irsoq. Bo‘g‘irsoqning quyon bilan to‘qnashuvi. Bo‘g‘irsoq va bo‘ri. Maymoq ayiq va bo‘g‘irsoq. Ayyor tulki va bo‘g‘irsoq.

**Izoh:** agar bola aytib bera olmasa, ertak qayta aytib beriladi. So‘ng rasmlar taklif etiladi.

**3-topshiriq.** “Bizning maydonchada” mavzusida hikoya tuzing. (Mavzu bolalar hayoti bilan bog‘liq bo‘lishi lozim.)

**Ko‘rsatma:** Berilgan topshiriqni bajarishlariga yordam beruvchi hikoya rejasi berildi.

**Reja namunasi:** 1. Bolalar maydonchasida nimalar bor? 2. Bolalar maydonchada nima qiladilar? 3. Maydonchadagi qaysi o‘yinlarni sevib o‘ynaysiz? 4. Qishda maydonchada qanday o‘yinlar o‘ynaladi? 5. Mashg‘ulotlar maydonchada qanday o‘tkaziladi? Shundan keyin bola “Hikoya fragmentlari” asosida hikoya tuzadi. Har bir fragment mazmuni yuzasidan savollar berib yordam ko‘rsatiladi.

**Taxminiy to‘g‘ri javob:** «Bizning maydonchada arg‘imchoqlar, ayvon, qumloq, yo‘lakcha va o‘yinchoqlar bor. Biz qumda har xil o‘yinlar o‘ynaymiz. Yo‘lakchalardan qo‘l ushlamasdan yuramiz. Arg‘imchoqlarda uchamiz. Biz bu yerda sakramachoq va koptoklar o‘ynaymiz. Menga bekinmachoq o‘yini yoqadi. Qishda qorbobo yasaymiz. Qorbo‘ron o‘ynaymiz. Chanada uchamiz.»

**4-topshiriq.** Rasm asosida hikoyani davom ettiring va yakunlang.

**Ko‘rsatma:** “Hikoyani tugallang” metodikasi biz tomondan quyidagi variantda qo‘llanildi. Bolaga hikoyaning kulminatsion (asosiy) voqeasi tasvirlangan rasm ko‘rsatiladi. Masalan, bola daraxtga chiqib oldi. Pastda, daraxt tagida to‘rtta bo‘ri turibdi. Ulardan bittasi daraxtga chiqishga harakat qilmoqda. Uzoqda qishloq ko‘rinyapti. Voqea qishda sodir bo‘lyapti. Rasm mazmuni muhokama qilinganidan so‘ng, bolaga tugallanmagan hikoya matni ikki marotaba o‘qib beriladi. Hikoyani davom ettirish topshirig‘i beriladi.

### Baholash:

3 ball - topshiriq mantiqiy to‘g‘ri davom ettirildi, 5-6 ta gapdan foydalanib, hikoya mazmuni to‘liq yoritdi.

2 ball - hikoya mazmuni 3-4 ta gapdan foydalanib, qisman yoritildi (topshiriqni bajarish chog‘ida logoped yordamiga tayandi).

1 ball - 1-2 gapdan foydalangan, mantiqiy va grammatik xatoliklar (ega, kesim, kelishik qo‘sishimchalari, shaxs-son qo‘sishimchalarini to‘g‘ri qo‘llay olmagan) bo‘lgan, sabab-oqibat bog‘lanishlari aniqlanmagan.

0 ball - mantiqiy bog‘lanishlarga rioya qilinmagan.

*Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati*

1. Logopediy. / pod red. L.S. Volkovoy., S.N. Shaxovskoy. – M., 2003.
2. Lopatina L.V., Pozdnyakova L.A. Logopedicheskaya rabota po razvitiyu intonatsionnoy virazitelnosti rechi doshkolnikov. – SPb.: Izd-vo «Soyuz», 2006. – 151 s.
3. Lopatina L.V., Serebryakova N.V. Preodoleniye rechevix narusheniy u doshkolnikov: uchebnoye posobiye./ L.V.Lopatina, Serebryakova N.V.. – SPb.: Izd-vo «Soyuz», 2001. – 191 s.
4. Lopuxina I.S. Logopediy. – M.: Akvarium, 1995
5. Luriya A.R. Yazik i soznaniye / pod red. YE.D.Xomskoy.-Rostov-n/D.: Feniks, 1998g.
6. Muminova L.R. Teoriticheskiye osnovi korreksionno-pedagogicheskoy raboti po preodoleniyu rechevogo nedorazvitiya u detey doshkolnogo vozrasta. Avtoref. dis. ...ped. fan. dok. – T., 1992.
7. Internet ma’lumotlari (google.ru, rambler.ru, Ziyonet, mail.ru).